

YUKLAMALARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK TASNIFLANISHI

Shodmonkulova Yulduzxon Bahodir qizi

Lingvistika (o'zbek tili) bo'yicha tadqiqotchi-pedagog.

yulduzsaydazimova_97@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari tarkibida keluvchi yuklamalarning ma'no jihatdan guruhlariga ajratilishi, mazmun jihatdan modal so'zdan uni ajratib turuvchi belgilar va boshqa yordamchi so'z turkumlari bilan aloqadorligi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: yordamchi so'z turkumlari, yuklamalar, modal so'zlar, bog'lovchi-yuklamalar, ko'makchi-yuklamalar.

O'zbek tili grammatik strukturasi jihatidan juda serqirra bo'lib, bugungi globallashuv davrida o'rganilishi va tadbiq etilishi zarur bo'lgan barcha sohalarda bo'lgani singari o'zbek tili ham qator izlanishlar amalga oshirilishi zarur bo'lgan yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad tilimizning naqadar murakkab tuzilishga ega ekanligi, ya'ni uning grammatik qurilishi va leksik jihatdan nihoyatda boy ekanligi taraflama boshqa tillardan qolishmasligi va bu tilga bo'lgan munosabatni va o'rganishga bo'lgan xohishni oshirishdir.

Har qanday tilni o'rganishning dastlabki bosqichida so'z turkumlariga murojaat qilinadi. O'zbek tilida ham so'z turkumlari ikkita katta bo'limdan tashkil topgan: mustaqil so'z turkumlari va yordamchi so'z turkumlari. Bular tilning morfologiya bo'limiga tegishli. Biz shulardan yordamchi so'z turkumlari tarkibida keluvchi yuklamalarga to'xtalib o'tamiz.

Yuklamalar boshqa yordamchi so'z turkumlaridan (bog'lovchi, ko'makchi) farqli o'laroq so'zlarni bog'lashdan ko'ra ko'proq unga qo'shimcha ma'no yuklashi bilan ahamiyatli. Yuklamalar so'z yoki gapga qo'shib, quyidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi: 1) so'zning turli morfologik shakllari va ma'no xususiyatlarini ifodalovchi gap shakllarini hosil qilishda ishtirok etadi (kuchaytiruv, taajjub, shart, istak). Masalan: -chi yuklamasi barcha so'z turkumlariga qo'shib, gapga so'roq ma'nosini berish uchun qo'llanadi (olding-chi? kel-chi?) 2) turli xil obyektiv



obyektiv modal tavsifni ifodalaydi: Begimqul. Mayli yuragi bor odamni olib kelib, mayli, u bir umr qishloqni ko'rmagan bo'lsin, mana bu tuproq hosildormi, hosildor emasmi, mana bu giyoh sog'mi, sog' emasmi, chanqaganmi, yo'qmi deb sso'ragandato'g'ri javob beradi (M.Boboyev). 3) xabar maqsadini ifodalaydi (ta'kid, tasdiq, inkor). 4) harakat yoki holatning kechish jarayonini, ularning to'liq yoki to'liq bo'lmagan, natijali yoki natijasiz bajarilishi jarayonini ifodalaydi.¹ Shunday ekan yuklamalar to'liq gapga yoki uning bir qismiga qo'shimcha ma'no jilosi berish uchun xizmat qiladi.

Yuklamalarni ular yuklaydigan ma'nosiga ko'ra turli guruhlarga bo'lib o'rganishni taqazo qiladi. Mazmun kategoriyasi tilning eng muhim kategoriyasi sanaladi. O'zbek tilshunoslari yuklamalarni ma'no ottenkasi jihatidan quyidagi guruhlarga bo'lgan:

1. Kuchaytiruv va ta'kid: -da, -u,(-yu), -oq, (-yoq), axir, hatto, hattoki, nahot, nahotki, g'irt;
2. So'roq va taajjub: -mi, -chi, -a, -ya;
3. Ayiruv va chegaralov: faqat, faqatgina, -gina (-kina, -qina);
4. O'xshatish va qiyoslash: xuddi, naq, go'yo, go'yoki;
5. Inkor: na...na.

Keyinchalik gumon, aniqlov va hatto shart yuklamalari ham mavjudligi keltirilgan. Yuklamalarning asosiy xususiyati ikki jihatda ko'rinadi:

- 1) Ular so'zning tarkibiga to'liq singib ketadi. Ma'nosi so'z sememasiga bitta okkazonal sema bo'lib qo'shiladi;
- 2) Ularning vazifa bajarish jarayoni muayyan gap bo'lagining faqat semantik jihatiga daxldor bo'lib, ularning konstruktiv va pozitivon jihatiga ta'sir etmaydi.² Yuklamalar gapdagi mohiyati jihatidan modal so'zlarga yaqin turadi. Shu tufayli bu ikkisi ko'pincha birgalikda tasvirlanadi. Ammo modal so'zlar bilan yuklamalarni tenglashtirib bo'lmaydi. Yuklama:

- 1) Yuklamalar rang-barang ma'nolarni ifodalaydi, shulardan ba'zilarigina modal ma'noga yaqin turadi;
- 2) Yuklamalar ko'pincha mustaqil ishlatilmaydi, biror so'zga tirkalib yuradi. Modal so'zlar esa:

¹ D.O'rinboyeva. O'zbek so'zlashuv nutqida o'zgarmaydigan so'zlar (yordamchi so'zlar). Samarqand- 1994.

² Z.Isaqov. O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro munosabati va unda yuklamalarning o'rni. Farg'ona- 2005.



1) Gap tarkibida gap modalligini kenagaytiruvchi, murakkablashtiruvchi vosita sifatida ro'yobga chiqadi.

2) Mustaqil ravishda yakka o'zi ishlatilishi mumkin va bu modal so'z-gap hisoblanadi. Bunday so'z-gaplarning barchasida kesimlik kategoriyasi ma'nosi so'zning lug'aviy ma'nosida mujassamlashgan bo'ladi: Kelasizmi? - Albatta.

3) Yuklamalar morfologiyada yordamchi so'zlar tarkibida, modal so'zlar esa so'z-gaplar doirasida o'rganiladi.³

V.V.Vinogradovning fikicha, modal so'zlar yuklamalarga yaqin turadi. Ularning qarashiga ko'ra, ularning farqi modal so'zning to'lig'icha gapga, yuklamaning esa so'zga tegishli bo'lishidir. Demak yuklamalar mazmun planini so'zga yuklaydi. Modal so'zlar esa butun gapga tegishli xulosa beradi desak ham bo'ladi. Bu ikkalasi shaklan ham bir-biridan tubdan farq qiladi.

Barcha yordamchi so'z turkumlarida bo'lgani singari yuklamalarning sof va vazifadosh turlari mavjud. Ba'zi qarashlar vazifadosh bo'lgan yordamchi so'z turkumlarini "oraliq uchinchilar" deb ham ta'riflashgan, bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi, ko'makchi-yuklama singari nomlar bilan atashgan.

Shaklan biror yordamchi so'z tarkibida turishiga qaramay, ba'zi yordamchilar mazmun jihatdan boshqa yordamchining vazifasida kela olishi ham mumkin. Masalan, quyida keltirmoqchi bo'lgan misolimizda birdaniga ikki bog'lovchi yuklamalashadi: Bu mudhish ahvoldan qutilish mumkinligini Urxon bobo tushunardi va shuning uchun ham u boshqalardan ko'ra ko'proq iztirob chekardi (Ch. Aytmatov). Mazkur gapda bog'lovchi predikativ qismlararo sabab ma'nosini kuchaytirgan bo'lsa, ham bog'lovchisi bog'lovchining (shuning uchun) ma'nosini bo'rttirgan, ularning har ikkisi yuklama ixtiyoriga o'tgan.⁴

Yuqorida biz yuklamalarni ular anglatib keladigan mazmun-mohiyatiga kora guruhlariga bo'ldik. Ammo yuklamar sanab o'tilganlardan tashqari ham boshqa ma'no ottenkalarini yuzaga keltirishi mumkin ekan. Masalan -mi yuklamasi:

1) So'roq bildiradi: Shu yerda onamizni kutmaymizmi? (Oybek) - Nimadan qo'rqding, yomon tush ko'rdingmi? (A. Muxtor);

³ Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. T.: 2008.

⁴ T.Turdiboyev. O'zbek tilida yordamchi so'zlar konversiyasi. T.:1996.



2) Taajjub, hayrat bildiradi (bunday holatda soroq ma'nosi ham anglashilib turadi): Yopiray, shuning hammasi yerga tusharmikan? (A. Muxtor) Men dalada ishlashim kerakmishmi? (Oybek)

Bu yuklama modal ma'nosini ham berishi mumkin: Xo'rsindimi, dala havosidan o'pkasini to'latib nafas oldimi, soqol enlagan ko'ksi qalqib ketdi. (A.Muxtor) Akbarali yaxlit temir shiftning vahimali loppilashidanmi yo ko'zlari hech narsani ko'rmay qolganidanmi, o'zini yo'qotib baqira boshladi. (A.Muxtor)⁵

Yuklamalar mazmun plani juda keng bo'lib, biz buni faqatgina gap konteksida yaqqolroq kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Ularni mazmun kategoriyasi juda keng va shu jihatida taraflama guruhlariga bo'lish, ularni tasniflash, boshqa yordamchilardan ajratib o'rganish kabi dolzarb masalalar har doim bahsli va ko'plab izlanishlarni taqazo qilib kelmoqda. Demak, yuklamalarni funksional-semantik aspektdan o'rganish ancha samaraliroq bo'lishi mumkin.

⁵ O'zbek tili grammatikasi. "Fan" nashriyoti. T.:1975.